

TARIXIY VOQELIK TALQINIDA YOZUVCHI POZITSIYASI VA BADIY TASVIR

Shomurodov San'at

Nukus innovatsion unstituti Samarqand fililali o'qituvchisi

Tarixiy davr voqeligini tasvirlash va talqin etish tarixnavis yozuvchi oldidagi murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki bo'lib o'tgan voqealarni tarixiy manbalardan qiyosan o'rganish, ulardagi turfa xil qarashlarni mantiqan umumlashtirib xolisona baho berish yozuvchidan anchayin kuchli iste'dod va ijodiy salohiyatni talab etadi. Shuning uchun ham taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor: "Kitobni badiiy qilib mahorat bilan yozish ijodiy jasorat demakdir... Chunoschi, badiiy asar yaratish – bor kuchini, butun ilhom va qobiliyatini sarf qilish demakdir. San'atning temir qonuni, kasb-korining talabi shudir"³⁸, – degan edi. Ayniqsa, insoniyat tarixida muhim siyosiy jarayonlarga sabab bo'lgan tarixiy jang va muhorabalar, ularning kelib chiqish sabablari, tarixiy joylar tasviri va boshqa jarayonlarni o'z davri nuqtayi nazaridan talqin etish anchayin mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Chunki bu kabi tarixiy voqealarga tarixnavislar va o'z davri kishilari tomonidan turfa xil munosabat bildirilib kelinadi va ba'zida bu kabi tarixiy jarayonlarni tasvirlamoqchi bo'lgan tarixiy romannavislar yechimsiz muammolarga duch keladi. Mana shunday bir vaziyatda ijodkorning tafakkuri serqirra va niyati xolisona bo'lmog'i kerak. Tarixnavis ijodkor shaxsiyati va uning oldida turgan mas'uliyatlari xususida Xalqaro Chingiz Aytmatov akademiyasining akademigi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi Nurali Qobul o'zining "Temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo'ydik" nomli maqolasida Amir Temur obrazi talqini masalasi xususida bunday deydi: "Afsuski, biz temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo'ydik. Biz Temurdan Lenin yasamasligimiz kerak. Yo'q narsani ham yopishtiraverish Amir Temur obro'sini tushirib qo'yadi, bor narsalarni haqiqatdan chekinmasdan yozish kerak. Shu bois dunyoda birinchi roman yozgan Servantes aytadi: "Qallob tarixchilarni soxta pul yasovchilardek qatl etish kerak". Ispaniya tarixida faqat soxta pul yasovchilargina o'limga hukm qilingan. Shu bois tarixni to'g'ri yozish kerak. Tarix buyurtma bilan, havas bilan yozilmaydi, tarix tarixligicha yoziladi. Temur haqida qon bilan, iymon

bilan yoziladi. O'z tarixidan yuz o'g'irgan qavm va millatlar nomard hisoblanadi. Agar biz tarix haqiqatini buzsak, ota-bobolarimizning nomiga chiziq tortgan bo'lamiz deb ta'kidlab o'tadi. ...Tarixiy-badiiy asarlarda 80 – 85 foiz holatlarda muallif to'qimalar, mubolag'alardan foydalanish mumkin, lekin tarixiy haqiqatdan chekinmagan holda"³⁹. Darhaqiqat, xoh Amir Temur haqida bo'lsin, xoh boshqa bir tarixiy siymo haqida yozilgan asar bo'lsin ijodkorda yuksak falsafiy

1. A. Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. Beshichi jild. Haq so'zning kuchi. –T.: Adabiyot va san'at mashriyoti, 1989. 123-bet.

2 N. Qobul. Temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo'ydik. Manba: <https://kun.uz/uz/14404280>

mushohodakorlik, olis moziy qa'ridagi tarixga nisbatan teran nigoh bo'lmas ekan, u tarixiy material qurshovida qolib ketadi va hujjatli bayonchilikka yo'g'rilgan tarixiy asar yaratadi. Tarixiy romannavislar, ayniqsa, tarixiy obrazlar yaratishda o'zining ijodiy maqsadini ro'yobga chiqarish uchun tarix haqiqatiga zid yondashadiki, buning natijasida ilm ahli va adabiyotshunoslar o'rtasida turli ziddiyatli qarashlar paydo bo'ladi. Yozuvchi shaxsi mana shu jihatga birmuncha e'tiborliroq bo'lishi kerak. O'rta asrlar insoniyat tarixida muhim siyosiy evrilishlarga sabab bo'lgan sohibqiron Amir Temur va Sulton Yildirim Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan mashhur Anqara jangi xususida Turkiya, Yevropa va Markaziy Osiyo, xususan, yurtimiz tarixchilari va tarixnavis yozuvchilari o'z davrida, balki bugungi kunda ham tarixiy-badiiy asarlar yaratmoqdalar. Ushbu asarlarda tarixiy muhoreba turfa xil yo'sinda talqin etilayotir. Lekin Anqara jangi talqin etilgan barcha tarixiy asarlar ham voqelikni to'laqonli ochib bermagan. Shu sababdan ushbu tarixiy jang haqida yaratilgan asarlarni qiyosan o'rganish lozim. Ushbu tadqiqotimizda mustaqillik davri o'zbek tarixiy romanchiligining yorqin vakillaridan Muhammad Alining "Ulug' saltanat" (to'rtinchi kitob) va Nurali Qobulning "Jahon mulkining sultoni, yoxud Fotih Temur va Yildirim Boyazid" nomli milliy tarixiy romanlar misolida qiyosiy tahlil qilish va ushbu tarixiy to'qnashuvni keltirib chiqargan tarixiy-siyosiy vaziyat va unga ijodkorlarning munosabati va o'ziga xos tasvir yo'sinini tadqiq etamiz.